

ARUZ VAZNI HAQIDA

Saidova Dildora Baxtiyarovna

TDSI akademik litseyi
o'zbek tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aruz vazni. Bu vaznda aruzni bo'g'inlarga emas, balki harflarga qarab bo'ladilar.

A.Navoiyning quyidagi satrlari aruzning ramali musamma maqsur turida yozilgan.

Na bo'lg'ay bir/ nafas men ham/ yonog'ing uz/ra xol bo'lsam,
Labing yapro/g'idan tomgan/ki go'yo qat/ra bol bo'lsam

Kalit so'zlar: Aruz arab tilidan olingan bo'lib "Arz qilish" degan ma'noni bildiradi g'oya, talqin, tahlil, falsafiy yondashuv, badiiy mahorat, estetik ideal, poetik joziba, ijodkor fenomeni.

Men adabiyot fanini go'zallik, nafosat tuyg'ularining rivojini, odamni tarbiyalaydigan, komillik sari yetaklaydigan nodir vosita deb hisoblayman. Zero, buyuk adib Abdulla Qahhor aytganlaridek "Adabiyot atomdan kuchli. Uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak"

Adabiyot-so'z san'ati. So'z orqali biz inson qalbini zabt etamiz. Ayniqsa nazm bilan odam ruhiyatini obod etishimiz, uning qalbiga ezgulik, mehr-oqibat singari noyob tuyg'ular bosh ko'tarib g'alaba qilganini guvohi bo'lganmiz. O'zbekiston Xalq shoiri A.Oripovda shunday satrlar bor.

Hamdam bo'lding men bilan har qandayin damlarda,
Suhbat qurdik goh shodon, goho g'amgin onlarda.
Eng oliy baxtim mening onajonim she'riyat,
Topgan toj-u taxtim mening jonajonim she'riyat.

Asosan nazmda 3 ta vazn bor.

1. Barmoq vazni. Misralardagi bo'g'inlar miqdorini barmoqlar bilan sanash juda qulay va oson bo'lgani sababli, mazkur she'r qurilishi barmoq vazni deb yuritish rasm bo'lgan.

3 3 5

Yigitlar/ maktubin/ bitganda qondan

3 3 5

Kelinlar/ firoqdan/ chekkanda yohu

3 3 5

Uning ham/ panohi/ qaytmadi jangdan

3 3 5

O'n to'qqiz/ yoshida / beva qoldi u

$$3+3+5=11$$

A.Oripovning "Ayol" she'ri 3 turoq, 11 bo'g'indan iborat.

2. Aruz vazni. Bu vaznda aruzni bo'g'inlarga emas, balki harflarga qarab bo'ladilar.

Ey sabo ho/lim borib sar/vi xiramo/nimga ayt,

Yig'larimning/ shiddatin gul/bargu xando/nimga ayt/

A.Navoiyning quyidagi satrlari aruzning ramali musamma maqsur turida yozilgan.

Na bo'lg'ay bir/ nafas men ham/ yonog'ing uz/ra xol bo'lsam,

Labing yapro/g'idan tomgan/ki go'yo qat/ra bol bo'lsam

H.Olimjonning quyidagi satrlari aruzning hazaji musammani solim tarzida yozilgan.

3. Erkin vazn

Bu she'riy tizimda misralardagi bo'g'inlar miqdorining tengligi (barmoq) hijolarning cho'ziq va qisqaligi (aruz) qonunlari hukm surmaydi. Musiqiylik-ohangdorlik doimo barq urib turadi.

G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri erkin sistemada yozilgan.
Sen yetim emassan
Tinchlan, jigarim
Quyoshday mehribon,
Vataning
Onang...

Lutfiyni "Malik ul-kalom" (so'z podshosi) deb e'zozlaymiz.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov Alisher Navoiy haqida shunday degan edi.

"Alisher Navoiy bobomizni avliyo desak, ul zot avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir".

Lutfiy, Navoiy singari "Zullisonayn" (ikki tili) ijodkor va mumtoz adabiyotimizning tayanchli vakillari ijodini o'rganishimiz uchun aruz sistemasini tushunishimiz lozim.

Maktabning 8-9-10-11-sinf adabiyot darsliklarida aruz vaznining rukn va taqte'si ko'rsatilgan.

Aruz vaznini bilish nazmiy satrlarni ifodali, ravon, chiroyli o'qish uchun katta ahamiyatga ega. Aruz tizimida undosh va o unlisi bilan tugagan bo'g'inlarga cho'ziq – belgisi, unlilar a, i, u, o', e bilan tugasa qisqa v belgisi qo'yiladi.

Aruz arab tilidan olingan bo'lib "Arz qilish" degan ma'noni bildiradi. Bu sistema arab olimi Xalil ibn Ahmad (719-791-yil) tomonidan yaratilgan. Aruz ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotida (XI-XII asrlar) yetakchilik qildi. Aruz vazni A.Navoiy ("Mezon ul-avzon"), Mirza Bobur ("Muxtasar") asarlarida o'rganildi. Ular turkiy she'riyatdagi aruzning nazariy asoslarini, qonun va qoidalarini ishlab chiqdilar.

Aruz vaznini tushunish uchun mumtoz she'riyatning turlari o'rganiladi.

Musammat arab tilida “Ipga terilgan marvarid” degan ma’noni bildiradi.
Musammatga sakkizta she’riy tur kiradi.hammasi arab tilida nomlangan.

- Musallas- uchlik
- Murabba- to’rtlik
- Muxammas- beshlik
- Musaddas- oltilik
- Musabba- yettilik
- Musamman- sakkizlik
- Mustasne yoki tasne-to’qqizlik
- Muashshar yoki mashru- o’nlik.

Aruzda sakkizta asl rukn mavjud

Rukn	taqte
1.Fa-ul-un	v--
2.Fo-i-lun	-v-
3.Fo-i-lo-tun	-v--
4.Ma-fo-iy-lun	v---
5.Mus-taf-i-lun	--v-
6.Ma-fo-i-lo-tun	v-vv-
7.Mu-ta-fo-i-lun	vv-v-
8.Ma-fu-lo-tun	---v-

Maktab darsliklarida asosan 1-2-3-4-ruknlar qo’llangan.

Ramal,hazaj,razaj va mutaqorib bahrlari (dengiz) o’zbek mumtoz adabiyotida eng ko’p ishlatiladi. Shuningdek maktab darsliklarida 3-rukn ramal, 4-rukn hazaj bahrlar keng qo’llangan.

v v - -	v v - -	v v - -	v - -
- v - -	v v - -	v v - -	v - -

Meni shaydo/ qiladurg’on/bu ko’nguldur/bu ko’ngul,

Xor-u rasvo/ qiladurg'on/ bu ko'nguldur/ bu ko'ngul

8-sinf darsligida

Lutfiyning "Bu ko'nguldur, bu ko'ngul" g'azalini tahlili. G'azalning birinchi misrasi 4, ikkinchi misrasi ham 4, bir bandi sakkizta.

Demak, musamman-sakkizlik. Bandning ikkinchi qatorida "Xor-u rasvo" so'zlari uchinchi ruknga to'g'ri keladi. U shu sababli g'azalning barcha qismlari shunday belgilanadi.

foilotun foilatun foilatun faulun

Taqte'si - v - -, - v - -, - v - -, v - -

G'azal ramali musammani mahzuf (yoki maqsur)

G'azal to'liq bo'lsa solim, noto'liq bo'lsa mahzuf (yoki maqsur) deyiladi.

Alisher Navoiy 8-sinf darsligidagi "Etmas" radifli g'azali.

Meni men is/tagan o'z suh/batiga ar/jumand etmas

Meni istar/ kishining suh/batin ko'nglum/ pisand etmas.

Taqte' v---, v---, v---, v---

Hazaji musammani solim

10-sinf darsligidagi Atoyi g'azali

Jamoling vas/lini qildim/ chamanda,

Qizardi gul/uyottin an/jumanda.

v---, v---, v—
mafoilun, mafoilun, mafoil

Hazaji musaddasi mahzuf.

Aruz vaznining ikkinchi nomi (ustun) deb ataladi. Darhaqiqat, bu she'riy sistema nazmning ustuni hisoblanadi.

Ilmu aruzni alohida fan sifatida o'rganish davrning taqozosidi. Chunki, aruz mumtoz she'riyatimizning asosidirki, uni yetarli tushunmasdan mumtoz adabiyotimizning salohiyatini, mumtoz shoirlarimiz badiiy mahoratlarini to'liq tasavvur etish mumkin emas.

Aruzni o'rganish uchun birinchi qadam maktab ostonasidan boshlanadi. Yoshlarni ma'naviy barkamol, ruhan sog'lom qilib tarbiyalashda aruzning o'rne bebahodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Sirojiddin Sayyid. Tuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: 2011
- 2.Sirojiddin Sayyid So'z yo'li Ikki jildlik tanlangan asarlar 2-jild. –T.:Sharq,2008
3. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida.
Kitobda: Bobir Bobirnoma. -T.:1960
- 4.E.Ochilov.Zahiriddin Muhammad Bobur. T.:O'zbekiston ,2012
- 5.Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: 1993.